



MUHAMMAD YUSUF IJODIDA MILLIY RUH VA INSONIY KECHINMALAR TALQINI

Inoyatova Durdona

Samarqand davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-kurs talabasi

Tel: +998770650619

Ilmiy rahbar: Usarova Laylo

Email manzili: urdonainoyatova750@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning she'rlari, ularda Vatan, xalq, millat, sevgi, do'stlik, iymon kabi insoniy tuyg'ular aks etganligi kabi jihatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Vatan, lirika, milliy ruh, adabiyot, muhabbat, ona, qo'shiq.

Kirish

She'rlari barchaning qalbidan chuqur joy olgan xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf ijodiy merosining salmog'i va ahamiyati u qadar beqiyoski, har bir kishi bu ijod namunalaridan o'zgacha zavq va mazmun topadi. "Muhammad Yusuf 1954-yil 26- aprel kuni Andijon viloyati Marhamat tumani Qovunchi qishlog'ida tavallud topgan. U Yusuf ota va Enaxon ayalarning ikki o'g'il, uch qiz farzandlari ichida erka dilbandi bo'lib ulg'aygan. Noyob iste'dod sohibi bo'lmish Muhammad Yusuf bolalik chog'larida sho'x yigit bo'lib, ko'p narsalarga qiziqqan, yuragida muhabbat, tomirlarida oqayotgan qonning jo'shqinligi uning she'rlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Muhammad Yusuf bolalikdan ziyrak, juda qiziquvchan bo'lganligi bois ko'p kitoblarni sevib o'qigan va savollarga javob izlagan. Shu bilan birgalikda Muhammad Yusuf ochiqko'ngil va hayolparast bola bo'lib, shariyat va adabiyotga mehri juda baland bo'lgan. Bunday mehrni uning qalbida buvijonisi Tursunxon ena uyg'otgan edi".^[1]

Asosiy qism

Muhammad Yusufning ijodiy muvaffaqiyatida taqdir unga uchratgan buyuk adiblarning roli nihoyatda kattadir. Ijodining dastlabki bosqichlaridayoq u Erkin Vohidov bilan tanishib, uning sinchkov nigohi ostida qalamini yanada sayqalladi. Keyinchalik Abdulla



Oripov bilan yaqin ijodiy muloqotlar olib bordi. Ushbu ikki atoqli shoirning ta'siri Muhammad Yusufning mavzu tanlovi, timsollar tizimi hamda she'riy ohangida o'zaro uyg'unlik va ma'naviy boyish jarayonini yuzaga chiqargan. Muhammad Yusuf – rostgo'y, halol va pok qalbli shoir sifatida xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan ijodkor. Aynan uning samimiyligi va qalb tozaligi she'rlarida yaqqol seziladi. U muhabbat haqida yozadimi, bevafo yor dardi haqida kuylaydimi yoki xalqimizning tarixi va taqdiri haqida fikr yuritadimi – baribir uning satrlarida hayotning o'zi, uning achchiq–shirin haqiqatlari bilan uyg'unlik aks etib turadi. Shuningdek, uning ko'plab she'rlari qo'shiq qilinib, san'atkorlar tomonidan zavq bilan ijro etilgan. Shoirning nomi shunday qo'shiqlar, o'lmas satrlari bilan xalqining qalbida yashamoqda. "Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, avvalo xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o'xshamagan misralarda tasvirlagan she'rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi. Muhammadning she'rlari bir qarashda juda sodda, go'yo oson yozilgandek tuyuladi. Ammo unga o'xshatib yozib ko'ring-chi? Qo'lingizdan kelmaydi! Uning oson esdalangandek ko'ringan misralari muxlislarini yig'latdi, kuldirdi, o'z ortiga tortib oldi. Odamlar uning she'rlarini hayajonsiz o'qimaydigan, kitoblarini do'konlardan qidirib-youradigan bo'ldilar" –deydi taniqli yozuvchi va munaqqid Ozod Sharafiddinov.

Shoir "O'zbekmomo" she'rida shunday deydi:

Keldi qaytib yot yurtlardan karvonlaring,
Qo'ng'irog'i ko'ksingdagi armonlaring.
O'zingniki o'zing yopgan shirmonlaring —
Senga tegmas qirmoch endi, O'zbekmomo.

Saroblarga sajda qildik yetmish yil biz,
Yo'q Vatanni Vatan bildik yetmish yil biz.
Chin Vatanning poylariga cho'kaylik tiz,
Sen yo'l boshla, yo'l och endi, O'zbekmomo.

She'rdagi shoir ona xalqqa murojaat qilib, uni istiqloql bilan qutlaydi. O'tmishda o'tgan qaramliklarning zahrini unutishga, Vatanning, mustaqillikning qadriga yetishga chorlaydi. Biz vatanni onaga o'xshatamiz. Xalqimiz qadim zamonlardan buyon ne-ne suronlarni boshdan kechirdi. Shoir bunga chiroyli o'xshatish qilib ona xalqini "o'zbekmomo" deydi. She'rning har bir misrasida shoirning eliga mehri jo'sh urib turadi. Muhammad Yusuf ijodida ayniqsa, Vatanga, xalqqa muhabbat mavzusi yetakchilik qiladi.



Yer aylanar,
Yer aylanar,
Yer yugurib tinmaydi,
Yaktagingning yenglaridan
Ter yugurib tinmaydi,
Qo'ling tegmay bu dunyoda
Bitta giyoh unmaydi
Tin bilmagan jonim mening,
Bobodehqonim mening. Ushbu "Bobodehqonim" she'rida shoir xalqning naqadar mehnatkashligini sodda so'zlar bilan yorqin tasvirlaydi. Uning shu mehnatlari sho'rolar davrida qanchalik suiiste'mol qilinganligini eslab iztirob chekadi, bu mehnatsevar xalqning farzandi ekanidan g'urur tuyadi, uni o'ziga yaqin bilib "Elim rizqi yetilgandir Yuragingning qorida...., Beqasam choponim mening, Bobodehqonim mening" – deya erkalaydi.

Shunigdek she'rlarida shoir do'stlik, sevgi, ezgulik, iymon kabi sof tuyg'ularni tarannum etadi, xiyonat, ikkiyuzlamachilik, xudbinlik kabilarga nafratini izhor qiladi. Shoir quyidagi misralarda ikkiyuzlamachi insonlar, o'z oramizdan chiqqan xiyonatkornlarni qattiq qoralaydi. O'tmishdagi buyuk shaxslarning ildizini shu kabi xudbin kimsalar quritganiga ishora qiladi.

Ular Iblis bilan tili bir o'rtoq,
Ular Azroilga sodiq choparlar.
Avval Usmonlarni sotib, keyinroq
Faryod ko'targan ham — laganbardorlar,
...Kazzob Stalindan zorlanmang hadeb,
U ham bolasi-da bitta insonning.
Bilmoqchi bo'lsangiz, qabri qayda deb,
Laganbardorlardan so'rang Cho'lponni! Yoki "Tilak Jo'ra" nomli sherida:

"U xo'p deydi, demas: "Menga ham kerak",
Ishonmasang, borib o'zidan so'ra.
Joningni prokatga ber desang, Tilak
Ikki qo'llab tutar: Marhamat, jo'ra.

Men uni tug'ilmay turib bilardim,
Murg'ak choq jannatda yuzin ko'rganman.
Tegirmonchilikni orzu qilardim,



Unga havas qilib shoir bo'lganman", - deya do'stining jo'mardligini, sadoqatini chin dildan his qiladi, u kishini o'zining qiyomatli do'sti ekanligini e'tirof etadi.

Bir intervyuda "Sizningcha, she'r nima?"- deyilgan savolga Muhammad Yusuf shunday javob beradi: "She'r, bu – shirin dard, azob. Shoir shu dard bemori. Yurakdagi o'sha she'r qozg'ozga tushmaguncha ba'zida ko'zga uyqu kelmaydi. Uni yozib bitirganingdan keying rohat boshqacha bo'adi. Yaxshi kitob o'qisangiz mazza qilasiz-ku! Endi bir iliq jumla topib olishni tasavvur qilib ko'ring... Ba'zilar borki, men yozolmay qolyapman, majbur bo'lsa-da, yozib turmasam, "qo'lim chiqib ketadi" deyishadi. Men bunga aslo qo'shilmayman. O'zim ko'nglim buyurmaguncha yozmayman ham"^[2]. Ha, shoir o'zi aytganidek ko'ngli buyurganlarini yozdi, balki, shuning uchun ham bu she'rlar dilga shunchalar yaqindir!

Oh, mening ortimdan ovvora onam,
Bir parcha yuragi ming pora onam.
Har baloni ko'rib yorug' dunyoda,
Toshkanni ko'rmagan bechora onam,

Bolang bo'lib bir bor boshlab keldimmi, Endi men ham senga o'g'il bo'ldimmi!.. "Sevgi bo'lmaganda nima haqida yozgan bo'lardingiz?" degan savolga: "Onam haqida. Balki butun ijodimni unga bag'ishlagan bo'lardim"^[3]– deya javob beradi shoir. Yuqoridagi misralar xuddi shu so'zlarning in'ikosi nazarimizda. Bu satrlar faqat Muhammadning emas, balki barcha onasini yetarlicha vaqt ajratolmagan farzandlarning dil iztirobidek hissiyot uyg'otadi. She'rni o'qigan kitobxon onasi oldidagi burchlarini qayta xotirlaydi. Muhabbat, hijron mavzulari ham shoir ijodida o'ziga xos ajralib turadi. Hammamizga ma'lum va mashhur bo'lgan "Biz baxtli bo'lamiz.." she'ri barcha oshiqqlarning qalb orzularini ifodalab turadi va hali hanuz tillardan tushmay kelmoqda.

"Mana kecha, oti nima edi
Saltanatning kenja qizini.
Esim qursin, yodda turmaydi,
Bor ediyu sochi uzuni —
Biz kuyovga uzatdik shuni...

To'yi to'kin o'tdiyu, lekin
Kuyoviga qizgina tushkur
Ko'ngilsizroq ekanmi, qaydam,
Ko'p yig'ladi, deb keldi kampir.



...Mehr to'la nigohi bilan,
Bobom mendan jim kutar javob.
Bilsa ekan, tushunsa ekan,
Nevarasi ne ko'yda shu tob!

Bilmaydi, eh bobom bilmaydi,
Men, men, axir sevardim uni!
Saltanatning oti nima edi,
O'sha sochi uzun qizini..." "Kechikish" nomli ushbu she'r (balki shoirning) sevgisiga yetolmagan oshiqlarning armonini beixtiyor yodga soladi, ko'ngillarga ajib bir g'am, shirin xotiralar azobini solgandek bo'ladi.

Xulosa

Shoirning she'rlari shu qadar ravon va tiniqki, hech bir so'zni tutilmay o'qiysiz, Ulardagi ma'no nozikliklariga yuragingiz tub-tubigacha yetib boradi. Muhammad Yusuf lirikasining xalqona tilga yaqinligi ham uning sevimli bo'lishining bir sababidir. Afsuski, shum taqdir shunday buyuk iste'dod sohibini bevaqt oramizdan olib ketdi. Ammo uning o'lmas ijodiy merosi, yorqin yodi abadiy dillarda yashaydi. O'zbekison qahramoni Said ahmad shoir haqida shunday deydi: "Muhammad Yusuf pokiza inson edi. U odamlarning esini og'dirgan, o'ylatgan, kuldirgan, yig'latgan, topgan-tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi...Muhammad Yusuf tez og'izga tushdi. Birorta shoir uningdek tez nom chiqarmagan, nomdor bo'lmagan. Ochig'ini aytsam, Muhammadga ko'z tegdi. Aslini olganda, asl shoirlar uzoq yashamaydi. Ammo ortidan abadiy yashaydigan meros qoldirib ketadilar. U mana shunday o'lmas meros qoldirdi"^[4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://tafakkur.net/muhammad-yusuf.haqida>
2. Shukur Qurbon "Muhammad Yusuf saboqlari: shoir siymosiga chizgilar" Toshkent –2012, 9-10-betlar.
3. Shukur Qurbon "Muhammad Yusuf saboqlari: shoir siymosiga chizgilar" Toshkent –2012, 15-bet.
4. Shukur Qurbon "Muhammad Yusuf saboqlari: shoir siymosiga chizgilar" Toshkent –2012, 18-bet